

## **“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatি**

**Komplayens xizmati tomonidan joriy yilning dastlabki**

**9 oyi davomida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

### **H I S O B O T**

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatи (*keyingi o‘rinlarda – Jamiyat*)ning shtatlar jadvaliga asosan Komplayens xizmatiga (*keyingi o‘rinlarda - Xizmat*) **15 ta** shtat birligi ajratilgan bo‘lib, shundan 10 nafar xodimlar bilan to‘ldirilgan. Hozirda 5 ta vakant lavozimlarga xodimlarni ishga olish bo‘yicha tanlov jarayonlari davom etmoqda.

Jamiyat Boshqaruv raisi-Bosh direktori tomonidan 2023-yil 11-yanvarda Komplayens xizmatining **34 banddan** iborat 2023-yil ish rejasi tasdiqlangan. Ish rejaning **16 ta** bandlari ijrosi to‘liq ta’minlanib, qolgan **18 ta** bandlari ijrosi bajarilishi nazoratga olingan.

Shuningdek, 2023-yil 7-martda Jamiyat tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha **11 ta banddan** iborat chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturning **7 ta bandi** ijrosi to‘liq ta’minlandi. Dasturning qolgan **4 ta** bandlari bo‘yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, Janubiy, Shimoliy, Markaziy va “1-son GMZ” kon boshqarmalarida hamda “NMZ” IChBda Jamiyatning 2022-yil 11-martdagи 192-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan Ishga qabul qilish Tartibiga asosan xodimlarni ishga ochiq tanlov asosida qabul qilish va boshqa lavozimga o‘tkazilishi qonuniyligi o‘rganildi. O‘rganish natijasida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha tegishli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi va ijroga qaratildi. Shu bilan birga, **20 nafar** aybdor xodimlarga nisbatan intizomiy jazo chorasi qo‘llanildi.

Joriy yilning o‘tgan davri davomida, Xizmat xodimlari tomonidan **26 marotaba** “onlayn va oflayn” malaka oshirish kurslarida ishtiroy etildi. Jumladan, “ISO37001:2016 xalqaro standarti bo‘yicha Pora olish-berish bilan kurashish menejmenti tizimi auditи” yo‘nalishida **2 ta**, “Davlat xaridlari sohasida firibgarlik va korrupsiyani oldini olish” yo‘nalishida **8 ta**, AQSh Pensilvaniya universitetining “Korrupsiyaga qarshi kurashish” yo‘nalishida **1 ta**, Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish Akademiyasi (*International Anti-Corruption Academy*)ning “Xususiy sektorda manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish” yo‘nalishida **3 ta**, “Xalqaro sanksiyalarini tushunish, ikkilamchi sanksiyalar, xalqaro arbitraj shuningdek amaliyotdagi muammolar” yo‘nalishida **1 ta** va boshqa yo‘nalishlarda **11 ta** sertifikatlar olindi.

ISO 37001:2016 xalqaro standarti muvofiqlik sertifikatini olish yuzasidan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ijrosi bo‘yicha joriy yil 9 oyi davomida **3 ta** ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi (*jami 16 ta ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilgan*).

(Jumladan, Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Komplayens xizmatining Nizomi, Xodimlarni ishga qabul qilish Tartibi, Odob-axloq kodeksi, Xodimlarni odob-axloq qoidalari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitilishini tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnomasi, Korrupsiyaga oid harakatlar to‘g‘risida axborot berish uchun aloqa kanallari orqali kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va qayta ishslash Reglamenti, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash to‘g‘risidagi Nizom, Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati haqidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish Reglamenti, Nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomasi, Xaridlarni o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizom, Xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari, odob-axloq qoidalarni hamda boshqa qonunbuzilish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlari va o‘rganishlar o‘tkazish bo‘yicha Reglament, Homiylik va xayriya yordamlari to‘g‘risidagi Nizom, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti, Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar bergen xodimlarni rag‘batlantirish Tartibi, Kontragentlarni tekshirishga oid Yo‘riqnomasi, Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida Nizom).

Shu bilan birga, Jamiyat Bosh direktori - Boshqaruv raisining ishchi-xodimlar va jamoatchilik uchun **korrupsiyaga qarshi kurashishga oid murojaati** ishlab chiqildi va xodimlar e’tiboriga yetkazildi.

Jamiyatning www.nkmk.uz rasmiy veb-saytida hamda ichki portal (*jamiyat xodimlari uchun joriy etilgan*)da “**Korrupsiyaga qarshi kurashish**” va “**Ochiq ma’lumotlar**” bo‘limlari joriy etildi. Mazkur bo‘limlarda ichki idoraviy hujjatlar, e’lon qilinishi belgilangan ma’lumotlar, murojaatlarni yuborish uchun tegishli (*ishonch telefoni va elektron pochta*) aloqa kanallari, ijtimoiy videoroliklar hamda Komplayens xizmatining mas’ul xodimlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar joylashtirildi hamda ushbu ma’lumotlar doimiy tarzda yangilanib borilishi nazoratga olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 154-sen Farmoni ijrosi yuzasidan 2022-yil 6-dekabrda “NKMK” AJda ochiqlik darajasini yanada oshirish bo‘yicha **68 ta** banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Ushbu Dasturning 62 ta bandi ijrosi ta’minlandi va qolgan 6 ta bandlar ijrosi nazoratga olindi.

Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida xizmatga jami **381 ta** ijro hujjatlari kelib tushgan bo‘lib, muddati kelgan **176 tasining** ijrosi o‘z vaqtida ta’minlandi.

Shuningdek, xizmatga **22 ta** yuridik va jismoniy shaxslardan murojaatlar kelib tushgan bo‘lib, shundan 11 tasi bo‘yicha xizmat tekshiruvi va 5 tasi bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazildi. Murojaatlardan 8 tasi tegishliligiga ko‘ra, 1 tasi qonuniy baho berish uchun huquqni muhofaza qiluvchi idoralarga yuborildi hamda qolgan murojaat mualliflarga javob xatlari jo‘natildi.

Komplayens xizmati tomonidan jami **1075 ta** (*781 ta buyruq va 294 ta farmoyish*) ichki idoraviy hujjatlar korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan

o‘tkazildi. Korrupsiyaviy ekspertiza natijasida **107 ta** ichki idoraviy hujjatlar normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga zid bo‘lganligi bois, qonunchilikka muvofiqlashtirildi.

Shu bilan birga, Jamiat markaziy apparatining xodimlarni ishga qabul qilish komissiyasining **46 ta** hamda homiylik va xayriya yordamlarini ko‘rsatish komissiyasining **68 ta** yig‘ilishlarida ishtirok etilib, tegishli bayonnomalar rasmiylashtirilishi ta’minlandi.

Bundan tashqari, normativ-huquqiy va ichki idoraviy hujjatlarga o‘zgartirishlar kiritish yuzasidan **19 ta** takliflar ishlab chiqilib, tegishli tartibda amaliyotga joriy etish uchun taqdim etildi.

Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustda 3383-sон bilan ro‘yxatga olingan (*korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash bo‘yicha*) Uslubiyot hamda Jamiatning tegishli ichki idoraviy hujjatlariga ko‘ra, **“1-son GMZ”** kon boshqarmasida joriy yilning fevral-mart oylarida korrupsiyaviy *xavf-xatarlarni aniqlash va baholash* o‘tkazildi. Baholash natijalariga ko‘ra, **12 ta** “yuqori” va **30 ta** “o‘rta” darajadagi xavf-xatarlar aniqlanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2023-yil 20-aprelda **36 banddan** iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Ushbu Dasturning 10 ta bandi ijrosi ta’minlandi va qolgan 26 ta bandlar ijrosi nazoratga olindi.

Shu bilan birga, **“NMZ”** ishlab chiqarish birlashmasida joriy yilning mayiyun oylarida korrupsiyaviy *xavf-xatarlarni aniqlash va baholash* o‘tkazildi. Baholash natijalariga ko‘ra, **325 ta** funksiyalar baholanib, shundan **17 ta** “yuqori” va **51 ta** “o‘rta” darajadagi xavf-xatarlar aniqlanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2023-yil 10-avgustda **57 ta** banddan iborat chora-tadbirlar Dasturi tasdiqlandi. Ushbu Dasturning 30 ta bandi ijrosi ta’minlandi va qolgan 27 ta bandlar ijrosi nazoratga olindi.

Bundan tashqari, joriy yilning o‘tgan davri davomida Jamiatga tanlov asosida ishga qabul qilinuvchi **1565 nafar** nomzodlar ustidan “NKMK” AJ va uning tarkibiy bo‘linmalarida ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha Yo‘riqnomalarini asosida tekshiruvlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, tanlov va mehnat qonunchiligi doirasida (*kvota va taklif asosida*) ishga qabul qilingan **2110 nafar** xodimlarning mehnat shartnomalariga hamda “NKMK” AJ tomonidan tuzilgan **6633 ta** xo‘jalik shartnomalariga korrupsiyaga qarshi shartlarning kiritilishi ta’minlandi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini **reyting baholash** tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-sон qaroriga ko‘ra, 2023-yil 1-yarim yillik bo‘yicha talab etiladigan **29 turdag‘i** ma’lumot va hisobotlar “**E-Anticor.uz**” elektron platformasiga kiritildi.

O‘tgan davr mobaynida Jamiat ishchi-xodimlari bilan **160 marotaba** (*jumladan, 81 ta seminar, 8 ta uchrashuv, 68 ta so‘rovnoma, shuningdek 1 marotaba mahalliy teleko‘rsatuv va 1 marotaba radioda hamda 1 marotaba*

*gazetada)* huquqiy targ‘ibot va profilaktik tadbirlar o‘tkazildi. Targ‘ibot tadbirlarida **5314 nafar** ishchi-xodimlar ishtiroki ta’minlandi.

O‘tgan davr mobaynida jami **27 marotaba** o‘rganish hamda xizmat tekshiruvlari o‘tkazilib, shundan 10 tasi tegishli tartibda chora ko‘rish uchun huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborildi. **38 nafar** ishchi-xodimlar (14 nafar rahbarlar) intizomiy javobgarlikka tortildi (*shundan 2 nafar rahbar lavozimidan chetlatildi*).

Shuningdek, Zarafshon qurilish boshqarmasida ishlovchi **4 nafar** ishchi-xodimlarning malakaviy ma’lumotlari egallab turgan lavozim yo‘riqnomasi talablariga mos kelmasligi holatlari aniqlanib, ushbu holatlarni bartaraf etish chorasi ko‘rildi.

Shu bilan birga, xizmat tomonidan Jamiyatda o‘tkazilgan monitoringlar natijasida **4 ta** holatda **manfaatlar to‘qnashuvi** aniqlandi va mazkur holatlar bartaraf etildi.

“NKMK” AJning 2023-yil 20-iyundagi 337-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “NKMK” AJ bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishuvchi xorijiy jismoniy va yuridik shaxs hamda banklarni sanksiyalar bo‘yicha nazarat qiluvchi Komissiya (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **13 ta** kontragent hujjatlari sanksiyaviy nazaratdan o‘tkazildi. Shundan, **11 ta** kontragent hujjatlari bo‘yicha **ijobiy**, **2 ta** kontragent hujjatlari bo‘yicha **salbiy** xulosa berildi.

Joriy yilning 9 oyi davomida xaridlar sohasida “Tovarlar, ishlar va xizmatlarni xarid qilish bo‘yicha” Komissiyasi (*komissiya tarkibiga Komplayens xizmati kiritilgan*) tomonidan **6 ta** tenderlar va **62 ta** tanlash hujjatlari bo‘yicha tovar yetkazib beruvchilar hujjatlari ko‘rib chiqilib, **1 ta 7,0 mlrd.so‘mlik** tanlov bekor qilindi.

Xizmat tomonidan joriy yilning 9 oyi davomida Jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga kirishmoqchi bo‘lgan **67 ta** kontragentlarning faoliyati tekshirildi. Tekshirish natijasida **15 ta** kontragentlarning hujjatlari tegishli talablarga javob bermasligi aniqlandi.

**Xizmat boshlig‘i**

**R. Avezov**